



"Boburnoma" as a memoir example of classical literature

Dildora KHUSANOVA¹

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 June 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

15 July 2024

Keywords:

Zahiriddin Muhammad

Babur,

"Boburnoma",

encyclopedia,

poetry,

ghazal,

verse,

Persian-Tajik,

Turkish.

ABSTRACT

This article analyzes the autobiographical work "Boburnoma", written by Zahiriddin Muhammad Babur, an outstanding representative of the classical literature of the period of the late 15th and early 16th centuries. The work, also known as Wakoye (Description of Events), is encyclopedic and serves as a research resource for specialists in various fields. The article examines the features of the content of the work, including legal aspects, mystical concepts, and poetic passages. Particular attention is paid to the analysis of Babur's literary, artistic, and aesthetic views, his views on life, and ideas reflecting his personal experiences and professional trials. The work is of significant interest to researchers because it demonstrates ideological integrity and harmony of form and content, which is a key aspect of the theory of classical literature.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss4-pp143-148>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Boburnoma" mumtoz adabiyotning memuar namunasi sifatida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Zahiriddin Muhammad

Bobur,

"Boburnoma",

qomusiy,

she'riyat,

g'azal,

bayt,

fors-tojik,

turkiy.

Ushbu maqolada XV asr oxiri-XVI asr boshlari mumtoz adabiyotining yetuk namoyandasi shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Boburnoma" asari xususida so'z boradi. Dastlab asarning o'rganilishi haqida qisqacha so'z boradi. Asarning yana bir nomi "Vaqoye" bo'lib, voqealar bayoni, demakdir. "Boburnoma" avtobiografik ruhda yozilgan bo'lib, muallif o'z boshdan kechirgan voqe-hodisalari haqida ma'lumot berib boradi. Uning yana bir o'ziga xos jihati qomusiy xarakterda ekanligi bo'lib, turli soha mutaxassislari

¹ Student, State Scholarship Holder named after Navoi, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.
E-mail: dildorad418@gmail.com

uchun tadqiqot manbayi sifatida xizmat qila oladi. Maqolada asarning ayrim ensiklopedik xususiyatlariga to'xtab o'tiladi va misollar keltiriladi. Asardagi fiqhiy masalalar, tasavvufiy tushunchalar va she'riy parchalar ham alohida diqqatga sazovar. "Boburnoma"da 223 she'riy bayt (447 misra) keltiriladi. Kitobxonni o'ziga jalb qiladigan jihati shundaki, deyarli barcha baytlarning yozilish sabablari Bobur tomonidan aytib o'tiladi. Keyingi qismda Boburning adabiy, badiiy-estetik qarashlari va ularning hayot bilan hamahongligiga alohida urg'u beriladi. Mumtoz adabiyot nazariyasida eng muhim bo'lgan jihat, g'oyaviy butunlik, shakl va mazmun birligiga ahamiyat beriladi. Shu o'rinda Bobur shaxsiyatiga, hayoti davomida ko'rgan voqealari, duch kelgan qiyinchiliklariga uchragandan so'ng chiqargan hayotiy xulosalarining ijodida aks etishining guvohi bo'lamiz. Zullisonaynlik an'anasini kuzatamiz.

«Бобурнома» как мемуарный образец классической литературы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Захириддин Мухаммад Бабура,
«Бобурнома»,
энциклопедия,
поэзия,
газель,
стих,
персидско-таджикский,
турецкий.

В данной статье осуществляется анализ автобиографического произведения «Бобурнома», написанного Захириддином Мухаммадом Бабуром, выдающимся представителем классической литературы периода конца XV и начала XVI веков. Произведение, также известное как «Вакойе» («Описание событий»), отличается энциклопедическим характером и служит исследовательским ресурсом для специалистов в различных областях. В статье рассматриваются особенности содержания произведения, включая юридические аспекты, мистические концепции и поэтические отрывки. Особое внимание уделено анализу литературно-художественных и эстетических взглядов Бабура, его взглядам на жизнь и идеям, отражающим его личные переживания и профессиональные испытания. Работа представляет значительный интерес для исследователей, поскольку демонстрирует идейную целостность и гармонию формы и содержания, что является ключевым аспектом в теории классической литературы.

Nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti manbashunosligida ham muhim mavqega ega "Boburnoma" asari chin ma'nodagi ilmiy-tarixiy va memuar asardir. Qomusiy alloma, ma'rifatli faqih, hassos shoir, nekbin podshoh Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub ushbu asar besh asrdan beri xilma-xil qomusiy ilmlar xazinasi sifatida jahon ahlini hayratga solib kelmoqda. Asarning yana bir nomi "Vaquoye" bo'lib, voqealar bayoni, demakdir. Ya'ni muallif asarda boshdan kechirgan voqea-hodisalari, ko'rgan-kechirganlari haiqda to'la ma'lumot beradi. Bayon qilingan voqealar ketma-ketligiga ko'ra asarni 3 qismga bo'lish mumkin:

1. Movarounnahr, Farg'ona voqealari (1494-1504) .
2. Afg'oniston voqealari (1504-1524) .
3. Hindiston voqealari (1524-1530) .

Asarning qomusiy xarakterga egaligi shundaki, unda bir qancha yo'nalishdagi muhim va qiziqarli ma'lumotlar qamrab olingan. Jumladan, tarix, til, adabiyot, san'at, tibbiyot, etnografiya, jug'rofiya, falsafa, fiqh, dehqonchilik va boshqa turli sohalarganmansub, hozirgacha ilmiy va hayotiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar bugungi kun soha mutaxassislari uchun zarur va dolzarb o'rganish obyekti. Asar qator tillarga tarjima qilinmoqda. Jumladan, Afg'oniston (Abdulhay Habibiy), Pokiston (Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot), Hindiston (Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul hasan Rizviy), Turkiya (R.R.Arat va N.I.Bayur), Rossiya (N.I.Pantusov, S.I.Polyakov, V.Vyatkin) olimlarining xizmatlari kattadir .

Xalqaro Bobur mukofoti sohibi, boburshunos olim Mirzo Kenjabek tomonidan "Boburnoma" yana bir qancha xususiyatlari o'rganilgan. Masalan, asarda buyuk va e'tiborli allomalar alohida eslanadi. Farg'ona davri voqealarining boshidayoq "Hidoya" asari muallifi Burhoniddin Marg'inoniy haqida aytilishining o'ziyoq bunga bir misoldir. Yoki nomlari zikr qilingan tarixiy shaxslarning 1500 dan oshishi, ularning manoqiblari va fazilatlari, xislatlarining nodir qirralariga Bobur tomonidan alohida to'xtalishi ma'lum bir ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qila oladi.

Kamdan-kam uchraydigan tarixnavislik san'atiga doir bir qancha she'riy misollarning keltirishi ham noyob tadqiqot manbayidir. Masalan, Mirzo Ulug'bek o'limi "Abbos kush" so'zida jumboq qilinadi, bu abjad hisobida hijriy 853, milodiy 1449-yilni ifodalaydi.

Bundan tashqari, asarda ko'plab arabiy ifodalar, Qur'on oyatlari va hadislar matni ham keladi. Bobur hayoti davomida ko'p bora oz qo'shin bilan juda katta lashkarlarga qarshi jang qilishga majbur bo'lgan, biroq deyarli hammasida omadi kelib, g'alaba qozongan. U bunga sabab sifatida "Baqara" surasi 249-oyatini ko'p tafakkur qilganini aytadi: "Qanchadan-qancha ozchilik guruhlar (borki), Allohning izni bilan ko'p sonli guruhlar ustidan g'alaba qozongaandir (2:249)".

Asardagi fihiy masalalar, tasavvufiy tushunchalar va she'riy parchalar ham alohida diqqatga sazovar. "Boburnoma"da 223 she'riy bayt (447 misra) keltiriladi. Kitobxonni o'ziga jalb qiladigan jihati shundaki, deyarli barcha baytlarning yozilish sabablari Bobur tomonidan aytib o'tiladi. Shunday voqealardan biri Farg'ona qismi 899-yil (hijriy yil hisobi bilan) voqealarida keltiriladi. Otasidan erta ayrilgan yosh shahzoda Bobur 12 yoshida taxtga o'tirishiga to'g'ri keladi. Biroq tashqi dushmanlarga qarshi chora ko'rishda sarosimada qolgan saltanat, afsuski, ichki boshboshdoqliklarga, taxt uchun ko'z olaytirgan kimsalarga to'la edi. Shu boisdan ham Bobur mirzo yoshligidanoq ko'p xiyonat va ozorlarga uchradi. Quyidagi bayt shunday holatni ifodalash uchun keltiriladi:

Baham barmakun to tavoni dile,
Ki ohe jahone baham bar kanad.
(Qo'ldan kelgancha hech bir dilga ozor berma,
Dildan chiqqan bir oh bir jahonni barbod qiladi).

Darhaqiqat, ko'ngil Allohning nazari tushadigan maskandir. Mumtoz adabiyotda shu sababdan ham ko'ngil eng inja va eng yuksak timsollardan biri hisoblanadi. Hazrat Navoiy ham bir ko'ngilni shod etmoqlik vayron bo'lgan Ka'bani obod qilish bilan barobar ekanini ta'kidlaydi:

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay .

Bu

baytlarning ma'nosini har bir inson chuqurroq his etishi, tafakkur etmog'i lozim. Zero, insonning amallari ichida ham eng a'losi qalbga ozor berishdan tiyilishdir, kimningdir dilini og'ritgan insonning garchi amallari osmon qadar bo'lsa-da, u mazlum bu insonni kechirmaguncha, uning hayotida yaxshiliklar o'rnini qiyinchiliklar egallashi tabiiy holdir.

Aslida mumtoz adabiyotning, umuman, badiiy adabiyotning maqsadi ham shudir, ya'ni inson atalmish mo'jizaga ko'ngil ko'zini ko'rsatmoqlik, o'z qalbini tanishni o'rgatmoqlikdir.

Yoki 900-yil voqealarida keladigan quyidagi bayt ham yuqoridagi ma'noga hamohanglik kasb etadi: Chu bad kardi mabosh emin zi ofat,

Ki vojib shud, tabiatro mukofot.

(Yomonlik qilganingdan keyin ofatlardan emin bo'lmaysan, chunki tabiatning beradigan jazosi aniq). Tabiat, olam o'zaro bog'liqlikda umumintegratsion harakatlarni bajaruvchi mavjudlikdir. Bugungi kun psixologiyasida keng tarqalgan Karma Qonuni (Nima bersang, shuni olasan) ham buni tasdiqlaydi. Inson yomonlik qildimi, unga bu ishi, albatta, qaytadi. Bilasizmi, "Boburnoma"ni o'qish insondan katta kuch talab qiladi, shunday kuchki, asarda o'z zalvoriga ega uslub va mazmun bor. Bunday fikrlarning mohiyatiga yetmasdan, shunchaki o'qib o'tish haqiqiy kitobxon uchun yetarli emas, albatta. Ayniqsa, insonni o'qiganda mana shunday tetiklashtiradigan, hayotda nega va qanday yashayotganini eslashga majbur qiladigan ijob namunalari har qadamda ham uchrayvermaydi.

Asrlar o'tsa-da, o'z salmog'ini saqlab qolish, ahamiyatini yo'qotmaslikning o'zi ham katta masaladir. Darhaqiqat, asrlar qa'ridan omon qolib kelayotgan bunday asarlarni, undagi so'zga olingan fikrlarni tahlil qilib, shu narsaga yana bir bora amin bo'lasan kishi, hozirgi kunda etika, estetika deb aytiladigan umumbashariy qadriyatlar, axloq tushunchalari, hech eskirmas his-tuyg'ular hali ham o'sha-o'sha, hattoki "zamon o'zgardi, hozir zamon boshqacha" degan gaplar ham bekor, chunki vaqt nisbiy tushuncha, xolos. Inson qalbi hamon o'z asliyatida ichki xotirjamlikni topishni, o'zligini anglashni xohlaydi. Buning yo'li esa nafsga qarshi kurashmoqdir. Bobur shaxsiyatida ham aynan shu jihat yetakchilik qiladi, buni asar boshidan oxirigacha ko'rishingiz mumkin. Ayniqsa, asarning hayotiyliigi, ortiqcha to'qimalardan holi ekanligi buni yanada kengroq ochib berishga yordam beradi.

Kobul davri, 909-yil voqealarida Bobur Movarounnahrardan to'liq chiqib ketib, Kobulga borganligi aytiladi, u yerda Xisravshoh ularni kutib oladi, biroq ko'ngildagidek hurmat ko'rsatmaydi. Bu holatlardan keyin shunday misralar keladi asarda:

Dar darvesh dar gileme bixusband,

Du podshoh dar iqlime nagunjand.

Nim none gar xo'rad mardi Xudoy,

Bazli darveshon kunad nimi digar.

Mulki iqlime bigirad podshoh,

Hamchunon darbandi iqlimi digar.

(O'n darvesh bir gilamda yotadi, ammo ikki podshoh bir iqlimga sig'maydi. Mardi Xudo bir nonning yarmini yesa, qolgan yarmini darveshlarga beradi, podshoh esa bir iqlim mulkini olsa, yana boshqa iqlimni ham olish fikriga tushadi). O'z nafsiga qul odomzot qo'lida qancha mol-mulki bo'lmasin, bairbir yana xohlayveradi. Avliyolar aytganidek,

insonda bir tog' oltin bo'lsa, yana bir tog'ini xohlaydi, bandaning nafsini faqat qora tuproq to'ldiradi. Bu o'rinda ham Boburning o'z-o'zini saboq olishga chaqirish maqsadida ham diniy, ham siyosiy, ham badiiy, ham falsafiy qarashlari o'zaro umumlashgan hayotiy xulosalarini ko'rishimiz mumkin.

911-yil voqealarida Boburning ayni o'z holini quyidagicha taftish qilishi ham e'tiborlidir:

*Umrre basaloh mesutudam xudro,
Dar shavayi zuhd menamudam xudro,
Chun ishq omad kadam zuhd-u, chi saloh,
Al-minnati lilloh, ozmudom xudro.*

(Umr bo'yicha o'zimni yaxshilik bila maqtadim, o'zimni zohid va taqvodor qilib ko'rsatdim. Ishq kelgach, zohidlik qayda qoldi-yu, yaxshilik nima bo'ldi? Xudoga shukrki, o'zimni sinadim). Navoiyshuos olim Maqsud Asadov darslaridan birida bizga Bobur haqida shunday fikr bildirgan edilar: "Boburning boshqalardan ajralib turadigan jihatlaridan biri shuki, unda ortiqcha mulozamat, tilyog'lamalik yo'q, hattoki u o'ziga ham juda ayovsiz, har kimning aybini yuziga aytadi. Vaqoye'da o'z ayblarini aytishdan ham qo'rqmaydi, tan ola biladi. May ichardim deydi, hatto shunday paytlar bo'ldiki, o'zimni umuman maydan ajrata olmay qoldim deya aytib o'tadi. Bobur – yaxshi tanqidchi, o'zini ham ayamaydigan tanqidchidir".

Baytga e'tibor bering-a, umr bo'yi o'zini maqtash, hammamiz ham shunday emasmizmi, kishkina yaxshilik qilib qo'ysak, maqtanmagan kishimiz qolmaydi, yaxshilik qilgan insonimizga-ku minnat qilaverib, xunob qilamiz. O'zimizni eng yaxshi, eng ideal insondek ko'rsatishga harakat qilamiz. Xo'sh, bu to'g'rimi? Baytning ikkinchi qismi esa ishq ilohiy bilan bog'lanib ketadi. Bobur o'zini zohid, taqvodor deb o'ylardi, lekin haqiqiy ishq keldi-yu, o'z holini angladi, sinadi.

Shu o'rinda Hindiston voqealari ham bizga Boburni qaytadan kashf etadi. Hijriy 932-yil (milodiy 1525-yil)da Hindistondek keng sarhadlar egallanib, muhtasham g'alab qozoniladi. 332 yil hukmronlik qilgan boburiylar sulolasiga asos solinadi. Bobur bu haiqda shunday qayd etadi: "Bu tarixdakim, men Hindistonni fath qildim, besh musulmon podshoh va ikki kofir Hindustonda saltanat qilurlar edi". Bobur Hindistonni fath etgach misli ko'rilmagan adolatli siyosat yuritishga kirishadi. Tarixda bosib olgan davlatini talon-taroj qilmasdan obod qilgan odil shohlar kamdan-kam uchraydi. Shoh Bobur ular qatorida bo'lib, Bobur hind xalqining dini, urf-odatlarini, mol-mulkiga daxl qilmaydi, aksincha, obodonchilik ishlarini olib boradi, taraqqiyotini rivojlantirish uchun o'z hissasini qo'shadi. lekin shunda ham Boburni bosqinchi sifatida ko'ruvchilar, unga qarshi tish qayrab yurganlar, fitna qilmoqchi bo'lganlar uchraydi. Shunday paytlarda uning qalbiga orom beruvchi ilin she'riyat edi. "Yulduzli tunlar" da Pirimqul Qodirov ayni shu holatlarni: Boburning tunda xayolga cho'mishi, uyqusi qochib, hujra ichidagi xilvaat hujrasiga kirib shoirga aylanishini judayam ta'sirli ifodalaydi.

"Boburnoma" da fors-tojik va turkiy tillarda bitilgan baytlar uchraydi, bu Boburning zullisonaynligidan ham dalolatdir. Quyidagi turkiy misralarga e'tibor bering:

*Ne qilayin sening bila ey til,
Jihatingdan mening ichim qondur.
Necha yaxshi desang, bu hazil ila she'r,
Birisi fahsh-u biri yolg'ondur.
Gar desang kuymayin bu jurm bila,*

Jilovingni bu arsadin yondur.

Mumtoz adabiyotda g'azalchilik haqida so'z ketganda 5, 6 baytli, ya'ni nisbatan qisqa g'azallar yozish bilan mashhur shoir sifatida Bobur alohida tilga olinadi. "Topilmas", "Mening ko'nglimki...", "Mushkuldur", "Bahor ayyomidur...", "G'ofil o'lma...", Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching..." kabi g'azallari buning isbotidir. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan uning g'azallarida g'oyaviy butunlik, poetik mahorat ham o'z o'rnida qo'llanganini kuzatasiz. Aql takomili va ruhning quvvat topib poklanishi orqali halovatga olib borishini ko'rasaiz. Yuqoridagi baytni tahlil qilsak, xalqda boshga balo tildan keladi deyishadi. Bobur ham buni alohida ta'kidlamogda. Ey til, sen tufayli ichim to'la qon, ko'ngilni ko'tarmoqlik uchun ba'zan hazil aytasan, ba'zan esa she'r, biroq birisi fahsh, birisi yolg'on bo'lsa, bu gunoh emasmi?! Agarda bu gunohdan kuymayin desang, ey tilim bu arsa-maydondan o'zingni yondir-u qutilgin. Ya'ni har birimiz so'zlagan so'zimizga e'tiborli bo'lmog'imiz lozim, keraklisini aytaylik, behuda so'zdan tiyilaylik. Alisher Navoiy aytganlaridek, eng yaxshi so'z muxtasar so'zdir.

Ushbu maqolada "Boburnoma"ning ayrim o'ziga xos jihatlari, Boburning hayoti va ijodi birlashgan ba'zi nuqtalarga to'xtalib o'tdik. Uning naqadar o'ziga talabchan shoh va shoir ekanligining guvohi bo'ldik. Umuman, "Boburnoma" asari hech qanday ortiqcha e'tiroflarsiz dunyo tomonidan tan olingan, hali ham tadqiq etilayotgan nodir manba – qomusiy ensiklopediyadir. Shu bois ham shoh va shoir Bobur ijodi va hayotiy faoliyatini yanada keng targ'ib va tadqiq etish bo'yicha ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash" to'g'risidagi qarori bu kabi sa'y-harakatlar nishonasidir.

Darhaqiqat, "Boburnoma" chin ma'nodagi memuar asardir. Undagi ma'lumotlarni keng o'rganishimiz, tadqiq etishimiz biz uchun ilm yo'lida ko'p yangiliklarni ochib berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boltaboyev H. Mahmudov M. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. 2-jild. T.: Mumtoz so'z, 2016. – B. 174.
2. Kuliyot. 4-jild. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 324.
3. Kuliyot. 5-jild. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 400.
4. Kuliyot. 6-jild. Zahiriddin Muhammad Bobur. – T.: Zilol buloq, 2021. – B. 368.
5. Qodirov P. Yulduzli tunlar. T.: Yangi asr avlodi. 2021. – B. 312.
6. <https://lex.uz>. Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi zahiriddin Muhammad Bobur.
7. <https://tafakkur.net.alishernavoiy> Kimki bir ko'ngli buzug'ning...
8. www.scientificprogress.uz Xidirova Z. "Boburnoma" jahon tan olgan asar.
9. <https://www.learnreligions.com/water-element-folklore-and-legends-2561689>
10. <https://ziyouz.uz/suhbatlar/jabbor-eshonqul-folklor-millatning-boqi-tarixi/>